

## O`SMIR YOSHDAGI O`QUVCHILAR O`RTASIDA SALBIY XULQ ATVORNING SHAKLLANISHINI OLDINI OLISH

Botirova Ziyoda

Namangan davlat pedagogika instituti  
Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilar o'rtasida salbiy xulq atvorning shakllanishini oldini olish va diviant (tarbiyasida nuqsoni bor o'quvchi) xulq atvorli o'quvchilar bilan to'g'ri psixologik ishlarni olib borish haqida tushunchalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, o'smir, ong, psixologik, xulq-atvor. Psixika.

O`zbekistonda ijtimoiy tarbiyaning eng oliv maqsadi har bir fuqaroda komil insonga xos fazilatlarni shakllantirishdir. Komil inson deganda biz - Ongi yuksak , mustaqil fikrlay oladigan , xulq- atvori bilan o`zgalarga ibrat bo`ladigon , bilimli shaxslar nazarda tutamiz. hozirgi davrda o`smirlarni tarbiyalashning o`ziga xos xususiyatlarinining qonuniyatları , imkoniyatlari, mehanizmlari mavjud. Shuni takidlash kerakki , o`smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlari to`la xisobga olgan xolda ta`limiy va tarbiyaviy tadbirlarni qo`llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilarni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlim yaratadi. Hozirgi kunda o`smirlar taqdiri masalasi g`oyat muhim axamiyat kasb etmoqda . O`smirlilik davri taqlidchanligi , muxim nuqtai nazarning shakllanmaganligi , hissiyotliligi, mardligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta`sirlarga beriluvchan o`smir og`il-qizlarga alohida e`tabor berish zarur.

Xalq ta`limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o`quvchilarni axloqiy jixatdan barkamol shaxs qilib shakllantirishdir. Tarbiya jarayonida ayniqsa , o`smir yoshdagi maktab o`quvchilarida vatanparvarlik , milliy g`oya va baynalmilalchilik, voqeilikka faol munosabatta bo`lish, o`rtoqlik mehnat kishisiga chuqur xurmat hislarini shakillantirish muhim ahamiyatga ega bo`ladi . Buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy taraqqiyotning g`oyasini o`zida mujassam etgan sharoitlarni yaratish davlat siyosating ustuvor yo`nalishi deb qaraladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosat tufayli ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtish, uning milliy zaminini mustahkamlash , zamon talablari bilan uyg`unlashgan darajaga olib chiqish, islohotlar taqdiriga ijobiylar ta`sir ko`rsatuvchi yangi insonni voyaga yetkazishning muhim manbai sifatida “Ta`lim haqida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” singari muhim ahamiyatga ega bo`lgan hujjatlar qabul qilindi.

Shularga asoslangan xolda yangi avlodni voyaga yetkazish , jamiyat talablariga javob beradigan, uning o`z oldiga qo`yan vazifalarini bajarishga

ko`maklashadigan fuqarolar shaxsini shakllantirish har bir tuzimning eng oliv maqsadi bo`lib kelgan . Respublikamizda bosqichma- bosqich inson shaxsini shakllantirish tizimining shakllantirib borilayotganligi ham fikrimizning yana bir yorqin dalilidir. Bolalarning turli yosh davriga mos munosabat usullarini shakllantirish ularning yosh psixologik xususiyatlari ko`ra turlarga bo`linadi. Ular orasida xozirgi davr masalasi bo`lib qolgan o`sprinlik davridagi o`zagrishlar o`quvchi yoshlarni xarakter xususiyatlarini omma orasida yaqqol ko`zga tashlanishi ularning xech ikkilanmay bajarayotgan ishlari xar bir ota-onan balki barcha pedagogman deb yurgan oliy ma`lumotli ziyoli insonlar uchun muhim masaladir. Buni bartaraf etishda xar birimiz befarq bo`lmasligimiz ota-ona va pedagoglarimiz xar birida o`zlari psixologik bilimga ega bo`lishi shart va majburdir. O`smirlar muammosiga e`tiborni kuchaytirish zarurligini asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko`rsatishimiz mumkin;

1. Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat , sanoat va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart- sharoitlarni o`zgarayotgani;
2. Ommaviy axborot ko`laming kengayishi tufayli o`smirlar ongliligi darajasini ko`tarilgani;
3. O`g`il va qizlarning dunyo voqealardan xabardorligi;
- 4.Ularning jismoniy va aqliy kamolotining jadallahshgani
5. O`smirlar bilan ishslashda g`oyaviy –siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;
6. Oshkorlik, ijjimoiy adolat demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani. Respublika ta`lim tizimida o`quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o`zini-o`zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyatlar yaratilgan.

O`smirlilik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko`chish jarayoni sodir bo`ladi . O`smirda psixik jarayonlar keskin o`zgarishi bilan aqliy faoliyatda xam buzilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda o`quvchi bilan o`qituvchining muloqotida, kattalar bilan o`smirlarning muomalasida hayotiy o`zgarishlar vujudga keladi. Bu o`zgarishlar axborot ma`lumotlarini bayon qilish shakli, uslubi va usullari o`smirni qoniqtirmay qo`yadi. O`smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sabab u kattalarning qayg`urishi koyishiga qaramay , o`zining fikrini o`tkazishga harakat qiladi. Serzardalik kundalik xatti- harakatning ajralmas qismiga aylanib qoladi. Ayrim pedagoglar kuyinib gapiradilar, ba`zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy psixologik ildizini topishga intiladilar, lekin mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotini ta`minlash faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o`smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo`qotish mumkin.

Bu davr insonning kamolini yuqoriqoq bosqichga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqrish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtaqidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonuniyat, xususiyat mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli mativ va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularni barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini –o'zi nazorat qilish baxolash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi. Maktabdagi faoliyatda keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni bajara boshlaydi. Natijada o'smirning ijtimoiy mavqeい ortib faoliyati takomillashib, psixikasi xar tomonlama rivojlanib boradi. O'smirlilik davrining eng asosiy xususiyati bu ikkita rivojlanish; psixik va jismoniy yoki boshqacha aytganda psixik va samatik jarayonlar intensevligi bilan xarakterlanadi. Har birimiz farzandlarimiz va tarbiyalanuvchilarimizda aynan shu davrga xos bo'lgan serzadalik, qo'pollik xaddan tashqari o'ziga e'tibor berish kabi yaqqol ko'rinish turuvchi, keskin namoyon bo'luvchi xulq shakllarini kuzatganmiz. Yana shu davrda tez toliqish, jismoniy zaiflik, turli kasaliklarga moyillik holatlarini kuzatish mumkin. Bularning barchasi psixosomatik o'zgarishlar xisoblanib psixik va somatik jarayonlar o'zaro uzviy bog`liqligining natijasi sanaladi. Bu o'ziga xoslilik psixologiyada "xarakter aksentuatsiyasi" deyiladi.

O'smirlarda uchraydigan salbiy xulq - atvor ikki guruhga bo'linadi;

1. Xulq-atvor mativlarining noto'g'ri rivojlanishi yoki kuchli effektli xis-tuyg'ulari ya'ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlarga kirish, jamoada o'zini ko'rastishga intilish.

2. O'quvchi o'smirlarning maktabdagi tartib qoidalarni tushunib yetmaslik yoki o'zlarining xulq- atvorini boshqara olmaslik agressivlik ya'ni jismoniy kuch ishlatish, qo'rqtish, serzadalik. Bu ikki faktor asosida vujudga keladi. Birinchidan temperament xususiyati, ikkinchidan o'qituvchi va tengdoshlari tengdoshlari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish. Tarbiyasi qiyin o'smirlar shakkalanishining yana bir asosiy omili bu o'smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir.

O'smirlilik davrida psixologik xususiyatlarning alohida namoyon bo'lishi sharoiti bo'lib, unda favqulotdagi ta'sirlar natijasida ayrim o'zgarishlar yuz beradi. Ayniqsa, o'smir xulq atvorining reaksiyalari muhit va yaqinlarning o'zaro ta'sirida quyidagicha namoyon bo'ladi.

1. Emansipatsiya reaksiya . Bu kattalarning qaramog'idan, nazoratidan va xomiyligidan ozod bo'lishga intilishda ko'rindi. reaksiya kattalar tomonidan belgilangan tartib, qoidaga qarshi yo'naltirilgan. "Ozod bo'lish" ehtiyoji mustaqil intilish bilan bog`liq bo'lib bu reaksiya o'g'il bolalarda ko'proq bo'ladi.

2. Tengurlari bilan guruhash reaksiyasi . Buning ikki turi mavjud;

Birinchisi, bir jinsga asoslanib, unda doimiy lider va guruh azolarining vazifalari, ularning guruhdagi o`rni belgilangan. Bu guruhda “liderning adpyutanti” unda intelektual qobilyat yo`q bo`sada, lekin jismonan kuchli bo`ladi, “antilidir” -lider o`rnini egallahsha harakat qiladigan, “ikkiyuzlamachi”- u tomonga ham bu tomonga ham o`tib yuradigan o`smirlar bo`ladi. Bunday guruhlarning o`z xududi bo`lib, unga begonalarni yaqinlashtirilmaydi. Guruhning tarkibi barqaror bo`ladi va yangi a`zolarini faqat sinovlar asosidaqabul qilishadi.

3. Qiziqish- xobbi reaksiya . O`smirlik davri uchun qiziqish-xobbi muhim hisoblanadi.

Ba`zi xollarda sodir bo`layotgan jarayonlar shaxsda deviant xulq –atvor turning paydo bo`lishi, kengayishi yoki yo`qolib ketishiga sababchi bo`lsa, boshqasida oqibat bo`lib qolish mumkin.

Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy me`yorlarni buzilishiga „Deviant“ xulq-atvor deyiladi. Ijtimoiy me`yorlarning har bir o`zgarishida jamiyat fikri keskin o`zgaradi. Yangi qarashlar va xulq atvor shakllarining tarafdarlari va unga qarshi turuvchilar paydo bo`ladi. Deviant xulq atvor ikki xil darajada o`rganiladi; individual va ommaviy.

Individual darajada ma`lum bir kishining aniq bir xulq-atvori, ommaviy darajada shu turdagи hodisalar majmui, ijtimoiy me`yorlarning buzilishlari tizimini haqida so`z boradi.

Shunday ekan har bir shaxs avvalo o`zini shu bilan bирgalikda butun bir jamoani, xalqni, oilasi o`ylagan holda o`zini yurish turishi, jamiyatdagi o`rnini, omma oldidagi xulq-atvorini nazorat qilgan holda olib borishligi, salgina beparvolik , yoki his-tuyg`ularini jilovlay olmaslik oqibqtida nafaqat o`zini balki butun bir xalqni parokanda qilishi mumkin. Zero osib kelayotgan yosh avlod biz kattalardan o`rnak olishi, xatti-xarakatlarimiz taqlidchisi hisoblanadi. Prezidentimiz aytganlaridek o`sib kelayotgan har bir yosh avlod sog`lom psixologik muhitda tarbiyalanishi har bir pedagoglarimiz oldidagi muxim vazifadir. Qachonki Har bir yosh o`quvchilarning o`z meni to`g`ri shakllantirsakkina yurtimizdan yana Beruniylar, Al-Farobiylar , A.Navoiylar kabi buyuk shaxsllar yetishib chiqadi va yurtimiz kelajagi porloq, davomiy bo`ladi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR;**

- 1.Ergash G`oziev. Umumiy psixologiya. 2010 yil.
- 2.Gulxumor Tojiboyeva. Yosh davrlar psixologiyasi. 2011yil
3. Psixologik krizis xolatlar mohiyati, ularning oldini olish va bartaraf etish.2008 yil.
4. Tarbiyasi qiyin o`smirlar bilan ishlash psixologiyasi . 2006 yil.
- 5.psixologik atamalar izohli lug`ati. Uslubiy qo`llanma 2006 yil.